O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI



# "Kreativ pedagogik va psixologik texnologiyalar-axborot ortib borayotgan zamonaviy global dunyoda intellektual faollikni oshirish omili sifatida"

mavzusidagi xalqaro miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami

Материалы международной научно-методической онлайн конференции на тему «Креативные педагогические и психологические технологии как фактор повышения интеллектуальной активности в растущем глобальном мире»

Materials of the international scientific and methodological online conference on the topic "Creative pedagogical and psychological technologies - information as a factor in increasing intellectual activity in the growing global world."

BUXORO-21-IYUN



**Buxoro viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi**

**2022 yil 21-iyunda onlayn tarzda "Kreativ pedagogik va psixologik texnologiyalar-axborot ortib borayotgan zamonaviy global dunyoda intellektual faollikni oshirish omili sifatida" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazilish bo'yicha**

| | | |
|---|---|---|
| **TASHKILIY QO'MITA HAY'ATI** | | |
| 1. | Alkarov E.M. | Xalq ta'limi vazirligi A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i |
| 2. | SafarovA.K. | Buxoro viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi direktori |
| 3. | Qosimov U.A | "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari " kafedrasi mudiri, ps.f.n., dotsent, ilmiy-metodik kengash kotibi(mas'ul-moderator) |
| **TAHRIR HAY'ATI** | | |
| 1. | Azimov Sh.K. | O'quv ishlar bo'lim boshlig'i |
| 2. | Qosimov U.A | "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari " kafedrasi mudiri, ps.f.n., dotsent |
| 3. | Azimov K.V. | " Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri. |
| 4. | Axmedov B.Ya | "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent |
| 5. | Yadgarova G.T | "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasi mudiri, ps.f.n |
| 6. | Xaydarov Y.X. | "Ijtimoiy iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi "kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent |
| 7. | Olimov T.X. | "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari " kafedrasi, dotsenti(Ph.D.) |
| 8. | Gadoeva M.M. | "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari " kafedrasi, katta o'qituvchisi |
| 9. | Baqoeva M.I. | "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari " kafedrasi, katta o'qituvchisi |
| 10. | Kazimova D | "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari " kafedrasi, o'qituvchisi |

**Muharrir(mas'ul, moderator):** U.A.Qosimov – "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari " kafedrasi mudiri, ps.f.n.

**Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.**

**_Sh.M.Ulug'ova BuxDU_**
_psixologiya fanlari nomzodi, dotsent_

# TALABALARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Аннотация:** Talabalarning kreativlik qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, ular kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va talabalar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lish va ularning fikr-mulohazalarini hurmat qilishni o'rganadilar. Xato qilish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrash, kamsitilishdan qo'rqish kabi sifatlar talabalarda kreativlikni shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

**Аннотация:** Только при стимуляции творческих способностей учащихся и создании дружелюбной обстановки они могут сделать творческое мышление привычкой. В творческой среде учителя и ученики учатся относиться к другим с искренностью и уважать их мнения. Такие качества, как боязнь совершения ошибок или неудач, акцентированность на переоценке, изолированность, игнорирование и критика, боязнь дискриминации, мешают учащимся развивать творческие способности.

**Annotation:** Only when students 'creative abilities are stimulated and a friendly environment is created can they make creative thinking a habit. In a creative environment, teachers and students learn to treat others with sincerity and respect their opinions. Qualities such as fear of making mistakes or failures, focusing on overestimation, being isolated, being ignored and criticized, and being afraid of being discriminated against prevent students from developing creativity.

Kreativlilik inson tafakkuri va dunyoqarashini rivojlanishiga xizmat qiladigan, turli vaziyatlarda aniq yechimlar taqdim qila oladigan qobiliyatlarning yuqori darajasi hisoblanadi. Talabalarda kreativlikni shakllantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin.

Agar talabalar fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrashdan qo'rqsalar, bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi yo'llarni qo'llashga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish ustida ish